

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH
KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Xalliyeva Nargiza Rozikovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, PhD, Buxoro sh

Bibutova Sarvinoz Narzullayevna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti magistranti, Buxoro sh.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СЕРВИСА В
ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ**

Халлиева Наргиза Розиковна

Бухарский инженерно-технологический институт, PhD, г. Бухара. Бибутова

Сарвиноз Нарзуллаевна

Бухарский инженерно-технологический институт, магистр, г. Бухара.

**INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES IN THE
DIGITAL ECONOMY**

Khalliyeva Nargiza Rozikovna

Bukhara Engineering and Technological Institute, PhD, Bukhara

Bibutova Sarvinoz Narzullayevna

Bukhara Engineering and Technological Institute, graduate student, Bukhara

Raqamli iqtisodiyotning inson hayoti barcha jabhalariga ta'sirini sezish qiyin emas. Hozirgi kunda sayyoramizning ko'pchilik aholisi internetga kirish imkoniyatiga ega va raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti xizmatlaridan foydalanishi mumkin, ijtimoiy tarmoqlar, turli mesendjerlar allaqachon shaxslararo muloqotning asosiy ajralmas qismiga aylangan.

Hozirda mamlakatimizda ham yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oladi. [1].

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida keyingi o'n yilliklarida xizmat ko'rsatish sohasi davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab bermoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi xizmatlar sohasini bandlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. [2].

Servis sohasining rivojlanishi universal jarayon bo'lib, so'ngi o'n yillikda quyidagi tendensiyalar uy g'unligi bilan belgilanadi:

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

- ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi [3].;
- barqaror rivojlanish, globallashtirish hamda insonparvarlashuvning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlari [4];
- xizmat ko'rsatish tendensiyalari va gibrid mahsulotning paydo bo'lishi;
- hamkorlik iqtisodiyoti va birgalikdagi iste'mol iqtisodiyotining rivojlanishi;

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida servis sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. [5]

Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. [6] Raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, kompaniyalarning asosiy aktiviga aylanib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o'ynaydi. Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. [7]. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi. [8]

Xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari, turizm xizmatlari raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi ko'plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan. [9]

Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi. [10]. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi. [11] Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi. [12]

Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish [13], mehnat salohiyati samaradorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi. [14]. Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi. [15]. Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jiozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda. [16]

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va ahamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. [17] Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi. [18] Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. 2022-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31,2 mingtani tashkil etdi, ulardan 19,8 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 63,6 % ga yetdi. Ularning o'sishi 13,9 % ga ko'paydi. Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 15,0 mingtasi yoki 75,6 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi. 2022-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 57,1 % ni tashkil etdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 2,3 mingtaga ko'payib, o'sish sur'ati 17,6% ni tashkil etdi. 2022-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (40,9 %) yuqori ulushni egallaydi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi. Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,8 % ga teng bo'ldi. Baholash o'rniga xizmat ko'rsatish korxonasida

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

auditorlik tekshiruvdan foydalanish mutlaqo noto'g'ri qadam hisoblanadi. [19]. Shuning uchun auditorlik tekshiruv baholash o'rniga emas, balki baholash bilan birga o'tkazilishi kerak. Keyingi ishlar jarayonida korxona uchun mol-mulkni sotishga zarurat tug'ilishi mumkin. Shu munosabat bilan ushbu mol-mulkni baholash zarur bo'ladi. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish korxonasini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini baholash va biznesni rejalashtirish bo'yicha bilimlar talab etilishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish korxonasini transformatsiyalash (qayta tarkiblash) uchun baholash ishlarining aniq bajarilishini ta'minlash lozim. Korxonalarni transformatsiyalash [7] (qayta tarkiblash) ishlari, faqat ularda korxonaning va tegishli bozor infratuzilmasining mutaxassislari ishtirok etgan taqdirda, bajarilishi mumkin, transformatsiyalash (qayta tarkiblash) dasturining ishlab chiqilishi natijasida esa, xizmat ko'rsatish korxonasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'naviy maqom yo'nalishlari aniqlanadi. Korxonalarni transformatsiyalash mehnat taqsimoti va xizmat ko'rsatishning ixtisoslashuvini ta'minlagan holda, ishlab chiqaruvchilar [8] va ularning ishlab chiqargan mahsulotlaridan bahramand bo'luvchilar, ya'ni, iste'mol qiluvchilarning manfaatlarini inobatga oluvchi yagona konsepsiya doirasida amalga oshirilishi lozim. Mintaqalarda transformatsion jarayonlarni rivojlantirish "Transformatsiya rivojini qo'llab-quvvatlash dasturi" tarkibiga kiruvchi maxsus ishlanmalarga asoslanishi kerak. Korxonalarni transformatsiyalash jarayonida bir-biriga xom ashyo, resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni o'tkazish kabi o'zaro kooperatsion aloqa kasb etuvchi bir nechta xo'jalik sub'yektlari hamkorlik munosabatida bo'ladi, shuningdek, yakuniy daromad va foydani (qo'shilgan qiymat) olish bilan bog'liq o'ziga xos munosabatlarga kirishadi. Shuning uchun ham har bir tuman hokimliklari mazkur tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissasini qo'shayotgan iqtisodiyotning bazaviy korxonalari uchun o'zining differensial "Korxonani transformatsiyalash Nizomi" ning yaratilishi va shu asosida ish faoliyati yuzasidan doimiy monitoring yuritishi kerak, chunki transformatsiyalash jarayonlari yilning to'rt faslida ham barqarorlikni ta'minlash garovidir. Bu va shunga o'xshash masalalar Respublikamizdagi yuqori boshqaruv organlariga oid tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali hal etilishni ham o'z navbatida talab qiladi.

Xizmatlar sohasini raqamlashtirish [7] mehnat bozorida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarib bormoqda, ayrim kasblarining yo'qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bashorat qilinmoqda. Raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko'nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Berkinov B.B., M.A.Aynaqulov. “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Jizzax.: 2004-114 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli Qarori.
5. Айнакулов М.А., Э.М.Абдухамидов Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. //«Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50
6. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.
7. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.
8. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.
9. Мусаева Ж. К. Значение финансово-валютных операций в развитии экономики Узбекистана //Научно-практические исследования. – 2020. – №. 3-2. – С. 40-44.
10. Мусаева Ж. К. РОЛЬ ФИНАНСОВО-ВАЛЮТНЫХ ОПЕРАЦИИ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. – 2019. – С. 152-156.
11. ТОШЕВ Ф. З., ПУЛАТОВ Ш. Ш. Оптимизация налогового бремени в условиях модернизации экономики Узбекистана //ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА Учредители: ООО" Институт развития образования и консалтинга. – Т. 10. – С. 58-62.
12. Khalilova, M. N., and Pulotov Sh Sh. "Actuality of Public Finance Management System in The Republic of Uzbekistan: Main Directions, Stages, Prospects for Improvement." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.3 (2023): 1-3.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

13. Shavkatovich P. S., Narzullayevna B. S., Rasulovna K. G. INCREASING THE INVESTMENT ACTIVITY OF PRODUCTION ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 15. – С. 31-34.

14. Пулатов Ш. Ш., Хайитова И. Н. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СПОСОБОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2022. – С. 405-408.

15. Артикова Д. М., Пулатов Ш. Ш. ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 347-350.

16. Пулатов Ш. Ш. СОПОСТАВЛЕНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОГО ОТЧЕТА О СОВОКУПНОМ ДОХОДЕ И ПОРЯДОК СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЕГО В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 189-191.

17. Shavkatovich P. S., Bakhodirovna N. Z. INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATION ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 118-121.

18. Qurbonovna, Xudoyberdiyeva Oysha. "TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MADANIYATNING O'RNI." Научный Фокус 1.8 (2023): 1024-1027.

19. Худайбердиева О. К. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2021. – С. 216-220.